

**MUSIQA MADANIYATI DARSALARIDA XALQ MUSIQASIDAN
FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARINI QO'LLASH
METODIKASI**

Mamajonova Gulzoda

Farg'onha Davlat Universiteti

Magistratura bo'limi

Musiqa ta'lifi va san'at yo'nalishi

1-kurs magistranti

Annotation

Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasidan foydalanishning zamonaviy usullarini qo'llash metodikasi yoritilgan. Maqolada xalq musiqasini interaktiv dars shakllarida, multimedya resurslari, integratsiyalashgan o'qitish metodlari va ijodiy topshiriqlar orqali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilarining faolligini oshirish, musiqiy eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar muhokama qilinadi. Maqola musiqa o'qituvchilari, metodistlar va tadqiqotchilar uchun foydali metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, idrok, metod, ijod, tafakkur, qobiliyat, tarbiya, nafosat, ixtiro, mehnat, san'at, kasb, maxorat, kreativlik, pedagogika.

Ta'limning eng muhim shakllaniruvchi bosqichi hisoblangan umumta'lim mакtablarida o'quvchi yoshlarni har jihatdan, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ma'naviy, g'oyaviy va estetik barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularda milliy g'urur, milliy ong, tafakkur va nafosatni shakllanirishga milliy ta'limning eng dolzarb vazifasi sifatida qaralayotganligi diqqatga molikdir. Milliy ong, milliy g'urur va tafakkur eng avvalo, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, xalqimizning o'ziga xos madaniy va moddiy boyliklarini o'rGANISH, unga mehr qo'yish, asrab-avaylash, va rivojlantirish negizida shakllanadi. Shu bois ham xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida muhim o'rin tutuvchi xalq musiqa merosining yoshlar ta'lim- tarbiyasida tutadigan o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Xalq donishmandligining ko'zgusi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi o'zining tarbiyaviy ta'sirchanlik imkoniyatlari bilan alohida ajralib turad. Xalqimiz o'zining tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichi, turli ijtimoiy, siyosiy, madaniy ko'rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko'plab qo'shiqlar yaratgan. Bu esa o'tmishtdan an'anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli ko'rinishlarini badiiy-estetik ifodasi sifatida avloddan-avlodga o'tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli badiiy-emotsional ta'sir etib kelgan. Bizga ma'lumki, o'zbek xalq musiqa merosi xazinasida kattalar olami bilan kichik yoshdag'i

bolalar ma’naviy va estetik olamini o’zida uyg‘unlashtirgan bolalar folklor musiqa asarlari ham muhim o‘rin tutadi. Bunday qo‘sishqlar o‘zida bolalar hayoti, dunyoqarashi, bolalarga xos turli o‘yinlar, aytishuvlar hamda ma’lum voqelik bilan bog‘liq jarayonlarni ifoda etish xususiyati bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Bolalar folklor qo‘sishqlari o‘z o‘rnida xalq musiqasining ommaviy turlari singari badiiy va g‘oyaviy mazmunga ega bo‘lib, sodda shaklda, nihoyatda ixcham, o‘yin-raqs harakteriga egadir. Bunday qo‘sishqlar o‘zining bolalarning ruhiy, ma’naviy va estetik dunyoqarashiga mos sodda va tushunarligi, kuylashga osonligi va bolalar diqqatini o‘ziga tez jalb qilish xususiyati bilan ta’lim-tarbiya tizimida keng foydalanish uchun qulaylik tug‘diradi. Shuning uchun ham milliy musiqiy ta’limning bosh maqsad va vazifalariga mos ravishda umumta’lim maktablarining 1-7 sinflaridan o‘quvchilarda xalq musiqa merosiga ongli munosabat, qiziqish, havas va ishtiyoq uyg‘otish, xalq kuy-qo‘sishqlarini, respublikamizning turli vohalariga xos namunalar, aytimlarni o‘rganish va ularning g‘oyaviy-badiiy mazmunini anglash, idrok qilish, ularga tavsif bera olishga o‘rgatib borish, shu asosda yuqori bosqichlarda (sinflarda) musiqaning jiddiy va murakkab turlariga ham faol ijodiy munosabatni shakllantirish bugungi kundagi musiqa ta’limi va tarbiyasi uchun mas’ul tarbiyachi-pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardandir. Ma’lumki, umumta’lim maktablari ta’lim tizimining eng mas’uliyatlari bo‘g‘ini hisoblanadi. Barcha fanlarda bo‘lgani kabi, ayni shu bosqichda musiqiy ta’lim va tarbiyaning ham tayanch poydevori yaratiladi.

Ta’limning ilk mashg‘ulotlaridan o‘quvchilar musiqaning kishilar hayotidagi ahamiyati, badiiy ifoda tili, janrlari, cholg‘u sozlari, xalq musiqasining turli marosim, mavsum, urf- odatlari bilan bog‘liq namunalari bilan tanishib, ular haqida ilk nazariy bilim, ma’lumot, tushunchalarga ega bo‘lib, amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini egallab boradilar. Umumta’lim maktablarida, xususan 1-7 sinflarda bolalar tafakkuriga xos, ko‘proq o‘yin-raqs harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bolalar folklor qo‘sishqlarini o‘rganish ulardan tarbiyaviy ta’sirchan namunalarni maqsadga muvofiq holda tanlab, o‘ziga xos ijro uslublarini e’tiborga olgan holda tadbiq etish milliy musiqiy ta’limni negizini mustahkamlashda eng muhim omil ekanligi ilmiy nuqtai-nazardan shu soha mutaxassislarining diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Zero, biz ham mazkur maqolamizda ta’kidlab o‘tilgan pedagogik vazifalarni ayrim jihatlariga ilmiy-ijodiy yondashish va uning milliy-musiqiy ta’lim samaradorligini ta’minlashdagi imkoniyatlarini tahlil etishga harakat qildik. Umumta’lim maktablarining 1-7 sinflarida o‘quvchilarni xalq musiqa merosi, xususan, bolalar folklor qo‘sishqlari bilan zarur ehtiyojni qondiradigan darajada tanishtirib borish eng birinchi navbatda musiqa o‘qituvchilaridan o‘z kasbiga fidoyilikni, xalq musiqa ijodiyotiga chuqur muhabbat va yuqori darajadagi kasbiy (xonandalik, sozandalik, musiqiy tahlil) kasbiy mahoratni talab qiladi. Bolalar folklor qo‘sishqlarini dars jarayonida o‘rganish o‘ziga xos pedagogik va metodik yondashuvlarni ham taqazo

etadiki, bu o'rinda o'qituvchi eng avvalo, o'rganilayotgan qo'shiqni tanlashga jiddiy yondashishi lozim bo'ladi. 1-7 sinf o'quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlariga ko'ra ko'proq o'yinga moyilligi, qo'shiqlarni sho'x, raqsbop, ma'lum o'yin harakatlari orqali ijro etilishi xususiyatlarini e'tiborga olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda yana bir muhim jihat qo'shiqlarni bolalarning vokal kuylash imkoniyatlariga (ovoz diapozoni, ovoz kuchi, qo'shiq so'zlarini tushunarligi, tez yodda qoladigan bo'lishi) mosligi o'qituvchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Musiqiy ta'limning milliy negizini mustahkamlashda xalq qo'shiqlari asosida yaratilayotgan zamонавиy qo'shiqlarga e'tiborni kuchaytirish ham (hozirgi vaqtда o'zbek kompazitorlari tomonidan ko'plab shunday namunalar yaratilgan) ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Yana shu narsani alohida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarining 1-7 sinflarida milliy musiqiy ta'limning asosini milliy tafakkurni shakllantirish tamoyiliga tayangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Zero, musiqa boshqa aniq fanlardan farqli o'laroq milliy tafakkurni shakllantirish borasida kengroq imkoniyatlarga egaligi bilan ham ajralib turadi. Milliy musiqiy folklor (xususan bolalar folklori) namunalarining pardatuzuk (lad-tonallik), ohang, ritm va shakllarini ichki histuyg'ular bilan idrok etish orqali o'quvchilarda milliy musiqiy idrok rivojlana boshlaydi. Albatta, o'quvchiyoshlarni bu jabhadagi qiziqish, qobiliyat, iqtidorlarini, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun musiqa darslarining har bir faoliyatidan oqilona foydalanish kerak bo'ladi. Ushbu faoliyatlarning asosiy mantiqiy va amaliy bosqichi bo'lgan "jamoa bo'lib qo'shiq kuylash" jarayonida folklor namunalarini samarali o'rganish tamoyillari xususida to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz:

1. Tanlangan namuna orqali dastlabki emotsiyonal taassurotlar hosil qilish.
2. Musiqiy asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish.
3. Asarning ohangi, parda tuzuki, shakli, harakteri, ijro etilish holati haqidagi tahliliy suhbat, tushuntirish.
4. Qo'shiqni kichik bo'laklarga bo'lib o'rganish.
5. Asarning musiqiy-badiiy obrazini tinglovchiga yetkazib kuylash.
6. Namunani milliylikka (yoki mahalliy uslublarga) xos jihatlarini tushuntirish (o'quvchilar bilan birgalikda aniqlansa yanada samarali bo'ladi).
7. Qo'shiqni milliy cholg'u sozlari jo'rligida badiiy ijro etish va uni texnik vositalar orqali yozib olib, o'quvchilarni o'zlariga eshittirish.
8. Qo'shiqning g'oyaviy mazmuni, yaratilish tarixi, ijrochilik an'analari, asar haqidagi o'quvchilarining taassurotlari yuzasidan suhbat, bahs-munozara o'tkazish, o'quvchilar faoliyatini baholash. Bunday ish tutish, ya'ni xalq musiqa merosi, xususan bolalar folklor namunalarini umumta'lim maktablarining 1-7 sinflardasinfilar o'quv jarayoniga ta'kidlab o'tilgan tamoyillarga tayangan holda tadbiq etish milliy musiqiy ta'limni

negizini mustahkamlash va barqaror rivojlanishini kafolatlaydi .Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviv yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlanterib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko 4ami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari madaniyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, Buning negizida musiqa san'ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o'tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg'unlashtirish hamda barcha barobar qabu! qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san'atining go'zal uyg'unlashishiga olib kelganligini e'tirof Musiqiy madaniyat xalq ma'naviy dunyosining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy ehtiyojini barcha davrlarda beminnat xizmat qilgan.

O'quvchilarga musiqiy ta'lif berish jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanib musiqa mashg'ulotlarini olib borish yo'llari bayon etilgan. Bugungi tezkor davrda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni o'z ustida ko'proq ishslashga jalb etish, ta'lif berish jarayonlarida axborot komunikatsion texnologiyalaridan ko'proq foydalanish, muammoli vaziyatlardan tez chiqib ketish, o'zini-o'zi tahlil qila olishi, musiqa madaniyati darslarida ritm hissi, badiiy obrazli ijro etish, talafuzga e'tibor berish, intonatsiyani to'g'ri qo'yish, sifatli kuylash Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar barcha fanlar qatori musiqa fanlarini o'qitish ishiga ham tadbiq etilmoqda. Kelajagimiz yaratuvchilari bo'lgan yosh avlodni xar tomonlama etuk va barkamol shaxslar bo'lib etishishiga, bunday texnologiyalar asosida ta'lif berish ilgarigi ish uslublarimizga qaraganda progressiv ahamiyatga ega. Garchi musiqa fanlarini o'qitish ko'prok amaliy ravishda olib borilsada, unda ko'prok o'qituvchilarning amaliy foaliyatiga tayanilsada, musiqa fanlarining yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlaridan foydalanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari,

nazariy bilimlari mavjud. Bolalar bilan o'tkaziladigan musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'rgatiladigan asarlar ularda faqat eshitishni rivojlantirib qolmay, balki talaffuzni, so'zlarni bo'g'lnarga bo'lib ijro etish, ritmikani, xarakatni, intonatsiyani, ovoz hosil qilishni ham rivojlantiradi. Shuning uchun ritmik ohangni so'zlar bilan bolalar bilan birga kuylashga va ayrim jumlalarni takror kuylashga e'tibor berish kerak. Hozirgi zamon musiqasining ritmik tuzilishi, takt o'lchovining bir xillikdan chiqishga intilish, keskin farqlanadigan ritmdan foydalanishda talaffuz ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon bastakorlari tomonidan yaratilgan bolalar musiqasini turli ritmlar bilan boyitib va bu asarlar ona tili va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'z ritmikasi bilan nozikligi, so'zlarning ohangdorligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. O'quvchilar bilan ishlashda asarning obrazli ma'nosiga emas, balki uning ritmik tomoniga so'zlarning aniq talaffuziga va lad-tonallik tuzilmasiga e'tibor berish kerak. O'quvchilar o'zbek musiqasiga yaqin intonatsiyali asarlarni osonroq tushunadilar. Bunday asarlar ko'plab bastakorlarimiz tomonidan yaratilmoqda. Masalan, bolalar kompazitorlari Dilorom Omonullaeva, Avaz Mansurov, Fattoh Nazarov, Xabibullo Rahimov, Shermat Yormatovlar tomonidan yaratilgan zamonaviy musiqa tili bolalarga yaqin, uning g'oyaviy mazmuni esa ijobiy axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. O'qituvchi maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlarini ham olib borishi jarayonida o'quvchilar bilan musiqa haqida suhbat o'tkazishi va ularning diqqatini asarning so'zlarini uyg'unlashuviga, ritmik harakat mazmuniga qaratishi kerak. O'quvchilarning musiqiy tafakkuri rivojlanishining muhim ahamiyati, ular kompozitor va bastakorlarimiz yaratgan asarlardagi ritmik harakatlarni yo'lga qo'yish, so'zlarning musiqa ohangiga mos kelishi hamda gimnastik mashg'ulotlarni to'g'ri bajarishda intonatsion tuzilmalarning xalq milliy harakterini ochib berib, o'zlashtirib borishi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon kompazitorlari va bastakorlari asarlarida yangi musiqiy obrazlar yaratilgan bo'lib, musiqiy obrazlar, ya'ni: intonatsiya, talaffuz, diksiya, lad, ohangdoshlik, ritm va tembr yangilanishiga va yangi musiqiy ifodalash vositalarining vujudga kelishiga ham sabab bo'lib, intonatsion tuzilmaning yangicha bayon qilinishi zamonaviy musiqa tilining muhim vositasidir. Intonatsiya – asarda kompazitor ko'rsatgan musiqiy mazmunni ko'rsatishi sababli unda talaffuzni ifodalashning yangi musiqiy-badiiy vositalarining belgilari hisoblanadi. Hozirgi kompazitorlarning asarlarida musiqiy obrazlarni intonatsiyali yoritish uchun musiqiy ifodalilikning hamma vositalaridan foydalilanadi, ya'ni: xalq qo'shiq va kuylarida necha asrlardan buyon o'ziga xos barqaror tovushlar, so'zlar, intonatsiyalar shakllangan bo'ladi, shuning uchun zamonaviy kompazitorlar ularga murojaat qilishlariga to'g'ri keladi va uni xis etib yangi asarlar yaratib kelmoqdalar. Musiqa mashg'ulotlarini olib borishda unli tovushlarni tug'ri talaffuz qilish orqali mashg'ulotlarini olib borishda, o'zbek milliy ohanglari va ritmi turli janrlarda ifodalanishini talabalar ongiga singdirishi muhim omil vositasini ta'minlaydi. Bugungi

kunda innovatsiyalardan muammoli va axborotli ma’ruza, vizual o‘qitish (turli fan o‘qituvchilaring) ketma-ketlikda bir mazvu bo‘yicha darslarning tashkil etilishi hamda majburiy konferensiyanidan foydalanish tajribasi asosida ish ko‘rilmokda. Buni biz musiqiy fanlar bilan kuchli darajada bog‘liq fanlar jumlasidan tarix, til va abadiyot va jismoniy ma’daniyat fanlari orqali amalga oshirishimiz mumkin. Hozirgi davrda ta’lim metodlari xilma – xil uslublardan tarkib topdi, ayni vaqtida pedagogikada quyidagi faol metod va uslublar ko‘proq qo‘llanilmoqda;

Jumladan, Mikro ta’lim - o‘quv materiali bo‘limlarining kichik qismlarini ketmaketlikda faoliyatga tatbiq etish. Mazkur ta’lim tarafdorlari ko‘pqirralikni, dars kirish qismining muhim elementi sifatida tavsiya etadilar. Bu metodni musiqa darslarining musiqa savodi faoliyat turida va cholg‘u sozlari ijro etish hamda ritmik harakatlar faoliyat turlariga tadbiq etishimiz mumkin. Ta’lim modul texnologiyasi (bayonning didaktik bir – biriga teskari) musiqa darsini tashkil qilishda qo‘llanilmagan musiqiy faoliyat turlari (musiqa tinglash, ashulla aytish, cholg‘u sozlarini chalish, musikal ritmik harakatlar bajarish, musika savodi va boshqalar) ning bir mavzuga yo‘naltirilishi didaktik birlik hisoblanadi. Bu metod musiqa mashg‘ulotlari va darslarida muvafaqqiyat bilan qo‘llanilib kelmoqda. Shuningdek, musiqa darslari o‘quvchilar bilimini tahlil qilish uchun test sav tuzilib, sinovlar o‘tkazilmoqda. Mavzular mazmuniga muvofiq bilimlarni majmualash – (birinchi dars axboratli, ikkinchi dars muammoli, uchinchi dars amaliy, to‘rtinchi dars mustahkamlash) bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida o‘z aksini topib, yillik mavzu asosida rejalashtirilgan choraklik mavzularini yoritishda qo‘llaniladi. Ilg‘or vositalar yordamida o‘quv matnlarini qismlarga bo‘lib o‘rganish – muayyan ketma-ketlikda va uzlusiz ravishda. Bu metod ham musiqa darslarini rejalashtirish jarayonida hisobga olinadi va yil bo‘yicha o‘tilgan darslar, avvalo o‘tilgan oraliq mavzularni hamda shu orqali yillik mavzularni o‘zlashtirishga qaratilgan. Ishbilarmonlik o‘yinlarini qo‘llash – (Misol uchun: “Labirint”, “muammolar maydoni” va boshqalar). Bu metod musiqa darslarida musiqali topishmoqlar shaklida qo‘llaniladi. Muhokamali ta’lim metodlari (o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili, fanlararo aloqalarni o‘rganish, muammolarni mustaqil hal etishga tayyorlash) - bu metod musiqa darslarining musiqa tinglash faoliyat turida qo‘llash uchun mos keladi masalan: Shoir Alisher Navoiy, yoki Bobur Mirzo g‘azallari asosida kuylangan mumtoz ashulalar, yoki maqomlar tinglash uchun berilgan bo‘lsa asar to‘g‘risida tushuncha berishdan oldin uning mualliflari, ya’ni sheriylar matn muallifi va musiqa bastalagan bastakor to‘g‘risida tushuncha berish lozim. Shunday ekan Alisher Navoiy yoki Bobur ijodi to‘g‘risidagi o‘quvchilarning adabiyot, tarix fanlaridan olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida yuqorida nomlari ko‘rsatilgan yoki boshqa mualliflar hayoti va ijodiga oid savollar og‘zaki kartochkalar shaklida yoki test shaklida o‘quvchilarga tarqatilib, berilgan javoblar orqali o‘quvchilar bilimini aniqlash

mumkin, lekin, shuni aytish kerakki, musiqa tinglash faoliyat turi uchun ajratilgan 5-7 minut vaqt musiqa asrini tinglash asar mualliflari, asar mazmuni to‘g‘risida o‘quvchilarga tushuncha berish uchun etarli emas. Agar darsda savol kartochkalari test savollari orqali bolalar bilimini oshirmoqchi yoki sinab ko‘rmoqchi bo‘lsak buning uchun ajratilgan vaqtni o‘zlashtirish zarur bo‘ladi. Mavjud muammolarni hal etuvchi vaziyatli tahlil (“vaziyat tasvir”, “vaziyat baho”, “vaziyat muammo”, “vaziyat mashq”) metodi. Ushbu metod dars jarayonida bajariladigan barcha ishlarni vaziyatga ko‘ra tanlash lozimligini bildiradi, ya’ni mazmunning mohiyatini yaratish zaruriyati dars jarayonida turli vaziyatlarni paydo qiladi va shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilarga vaziyatga ko‘ra tasvir (rasmlar, fotosuratlar, o‘kuv filmlari, videolavhalar, vedeofilmlar, mul’tfilmlar namoyish qilinishi yoki vaziyatga ko‘ra o‘quv mavzusi bo‘yicha o‘zlashtirishga baho berish, mavzuni bolalar yaxshi idrok etishlari uchun turli muammolarni o‘rtaga surish, shuningdek, ko‘zlangan natijalarga erishish uchun mavzuning asosiy yoki yordamchi qismlarini o‘zlashtirish uchun qayta-qayta takrorlash, mashq qilish tushuniladi). Pedagogik trening (tez o‘qitish va yozish, mashq, fikrlash texnikasi, grafikasi, mimikasi, taqlid va fonatomika uslublarini egallah) metodi. Bu metod har bir o‘qituvchining pedagogik mahoratini, dars jarayonida yuksak fazilatlarini namoyish qila olishini bildiradi. Musiqa fani o‘qituvchilar o‘qish va yozishdan tashqari yuksak ijrochilik qobiliyatlarini namoyish qila olishi zarur, shuningdek, bu metod o‘quvchilarda ham tez yozish, tez o‘qish grafik va jadvallarni tez chizish, musiqa darslarida notalarni tez yozish malakalarini shakllantirishni bildiradi. O‘quvchilar faoliyatini reyting baholash- Musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni reyting baholash jarayonida ularning barcha musiqiy faoliyat turlaridan o‘zlashtirishlari nazarda tutiladi. Chunki ba’zi o‘quvchilar ayrim faoliyat turlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyish qilishsada, boshqa faoliyat turlari bo‘yicha orqada qolishlari, ayrimlari esa uning aksini ko‘rsatishi mumkin. Reyting baholash esa xolis bo‘lishi lozim. Pedagogik kvalimetriya (o‘quvchilarni AKT vositasida testdan o‘tqazish) musiqa fanini o‘qitishda test sinovlari asosan choraklar, yarim yillik va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. Test savollari musiqa savodi, musiqa adabiyoti va musiqa tarixi bo‘yicha o‘quv yili davomida o‘qitilgan bilimlar ko‘lami bo‘yicha tuzilib, bundan tashqariga chiqmasligi lozim, ya’ni musiqa tinglash ko‘shiq kuylash, musiqa savodi kabi faoliyat turlari bo‘yicha o‘quvchilarning olgan nazariy bilimlari asosida savollar tuziladi. Shuni aytish kerakki test savollari va ularga beriladigan javoblarning murakkablik darajasi sinflar osha oddiyidan murakkabga tomon prinsipi asosida bo‘lishi lozim. Savollar hajmi esa, o‘quv materiali hajmiga ko‘ra bo‘lib, tuzilgan savollarning jami o‘quv materiali ko‘lamini to‘liq yoritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
3. E.Qobilova. Musiqa o’qitish metodikasi va maktab repertuari.darslik Toshkent-2023 yil.